

«ONA LOCHIN VIDOSI» ROMANIDA HAYOT HAQIQATI VA BADIY TALQIN

Madina Bazarboyeva,

Nukus davlat pedagogika institute kurs tayanch doktoranti

madinabazarboyeva157@gmail.com

Nukus, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolada Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” romanida Gavharshod begim obrazining yaratilishida hayot haqiqati va badiiy to‘qima mutanosibligi tadqiq qilinadi. Tahlil jarayonida qiyosiy va psixologik metodlardan foydalanib obrazning hayot haqiqatiga mosligi va bunda yozuvchi mahorati baholanadi.

Kalit so‘zlar: Pirimqul Qodirov, “Ona lochin vidosi”, Gavharshod begim, hayot haqiqati, badiiy to‘qima.

Abstract. This article explores the correlation between historical reality and artistic invention in the creation of the character of Gawharshad Begum in Pirimqul Qodirov’s novel “Farewell of the mother falcon” In the course of the analysis, the character’s correspondence to historical reality and the author’s skill in this regard are evaluated using comparative and psychological methods.

Keywords: Pirimqul Qodirov, “Farewell of the mother falcon”, Gawharshad Begum, historical reality, artistic invention.

Аннотация. В данной статье исследуется соотношение жизненной правды и художественного вымысла при создании образа Гавхаршад бегим в романе Пиримкула Кадырова “Прощание матери-соколицы” В процессе анализа с использованием сравнительного и психологический методов оценивается соответствие образа исторической действительности и мастерство писателя в этом.

Ключевые слова: Пиримкул Кадыров, “Прощание матери-соколицы”, Гавхаршад бегим, жизненная правда, художественный вымысел.

Kirish. Tarix va badiiy adabiyotni uyg‘unlashtirish murakkab jarayon bo‘lganligi sababli tarixiy mavzuda yozilgan har qanday asarni o‘rganish, tahlil qilish zarurati vujudga keladi. Tarixda chuqur iz qoldirgan temuriy malikalar, xususan, Shohrux Mirzoning suyuqli rafiqasi Gavharshod begimga bag‘ishlangan badiiy asarlarni tadqiq etish bugungi adabiyoshunoslik oldida turgan asosiy vazifalardan biri sanaladi. Mazkur maqolada iste’dodli yozuvchi Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” romanida Gavharshod begim obrazining badiiy talqini hamda uning tarixiy haqiqatga yaqinlik darajasi tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Adabiyoshunos olim U. Normatov qayd etishicha, Pirimqul Qodirov tarixiy romanlarining badiiyati hali adabiyoshunoslikda yaxshi o‘rganilgan emas [6.144]. Yozuvchining “Ona lochin vidosi” romani bosh qahramoni Gavharshod begim obrazi ham adabiyotshunoslar tomonidan yetarlicha tadqiq qilinmagan mavzulardan biridir. Buning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

Gavharshod begim haqida tarixiy ma’lumotlarning yetishmasligi;
prototip sifatida tanlangan obrazning murakkab xarakterga egaligi;
Gavharshod begim haqida bir-biriga qarama-qarshi qarashlar mavjudligi

Rivoyatlarga ko‘ra, Gavharshod begim afzal sifat, poklik, adolat, baland maqsad, axloq va ishonchlik timsoli sifatida e’tirof etilgan. Uning xayriya ishlari va ezgu amallari

davrida insonlarga katta ta'sir qilgan [1.26]. Mahoratli yozuvchi Pirimqul Qodirov "Ona lochin vidosi" romanida ham qahramonnini xuddi shu sifatlarga ega ayol qiyofasida ochib beradi. Ayniqsa, malikaning ilm ahlini qo'llab-quvvatlashi yosh iste'dod egasi Alisher Navoiy bilan uchrashuvi orqali yanada jonli aks ettiriladi.

Eron tadqiqotlarida keltirilishicha, Gavharshod begim Shahrux hukmronligi davrida va hatto undan keyin ham siyosiy maydonda faol ishtirok etgan. Ayniqsa, Shahrux hayotining so'nggi yillarida u davlat boshqaruvida alohida rol o'ynagan [3.113].

Gavharshodbegim — Shahrux Mirzoning rafiqasi va Amir Temurning kelini sifatida mamlakatni obod qilish va ezgu ishlarni qo'llab-quvvatlash yo'lida doimo erining siyosatini davom ettirib kelgan [9.339]. Shohrux Mirzo vafotidan keyin avj olgan taxt uchun kurashlar davrida hal qiluvchi qarorlarni Mahdi ulyo deb e'zozlanuvchi Gavharshod begim qabul qilgani "Ona lochin vidosi" romanida tarixiy haqiqatni xronologik ketma-ketlikka asosan mantiqiy izchillikda badiiy aks ettiriladi.

Jalil Ahmad Murshid va Muso La'lining "Hirot temuriylari" maqolasida keltirilishicha, Gavharshod begim va Shahrux Mirzo bir-birini sevar edilar va bir xil didga ega bo'lganlar. Ikkisi ham tabiat go'zalliklarini, Hirot san'atkori tomonidan yaratilgan miniatyuralarni ko'rish va Xuroson shoirlarining she'rlarini tinglashdan bir xil zavq olgan va o'z his-tuyg'ularini namoyon qilgan [2.93]. Pirimqul Qodirov romanda malikaning aynan badiiy adabiyotga, kitob mutolaasiga oshuftaligi orqali uning qalbi pok va ezgulikka moyil ekanligini ochib beradi.

Mazkur tadqiqotda Pirimqul Qodirovning "Ona lochin vidosi" romanida tarixiy ayol obrazining badiiy talqini va tarixiy asoslarini o'rganishda bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Jumladan, *qiyosiy metod* asosida badiiy asardagi Gavharshod begim obrazi tarixiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlar bilan solishtirildi. Bundan tashqari, psixologik metod orqali tarixiy ayol obrazining badiiy aks ettirilishi va bunda yozuvchi mahorati ko'rib chiqildi.

Muhokama. Adabiyotshunos olim S.Mirvaliev to'g'ri ta'kidlaganidek, yozuvchi tarixchi yaratgan asar asosiga suyanadi: nima bo'lganligini tarix fanidan o'rganib, uning qanday bo'lganligini badiylashtiradi [4.116]. Pirimqul Qodirov "Ona lochin vidosi" romanida temuriy malika Gavharshod begim obrazini yaratishda faqat arxiv materiallariga tayanib qolmasdan tarixiy ayol, murakkab davrda yashagan davlat arbobi, hukmdorning rafiqasi va Mirzo Ulug'bekning onasi sifatida qiyofasini ochib berishda badiiy tasvir vositalaridan samarali foydalandi.

Roman voqeasi Shohruh Mirzoning o'z suyukli malikasi Gavharshod begimga atab qurdirgan mahobatli qasrning ta'rifi bilan boshlanadi. Bog'i Safed (Oydin bog')ning qoq o'rtasida oq marmardan qurilgan ushbu qasr temuriylar shon-shavkatini ko'z-ko'z qilish bilan birga asarning bosh qahramoni Gavharshod begimning temuriylar sulolasida tutgan mavqeyi haqida ham muayyan tasavvur uyg'otadi.

Tarixdan ma'lumki, Amir Temur vafotidan keyin boshlangan murakkab davrda mamlakat taqdiri Shohrux Mirzo va uning yaqin maslahatchisi Gavharshod begim qo'lida bo'ldi. Adib Amir Temurning keliniga qarata: "Bizning xonadonga qo'ygan poyi qadamingiz qutlug' bo'lsin, bolam!" [7.4] deyishi bilan o'z shavkati va avlodi vorisiyligining bardavomligi uning ham zimmasida ekaniga ishora qilganiga e'tibor qaratadi. Garchi o'zbek adabiyotida Gavharshod begim obraziga ilk marotaba murojaat qilinmayotgan bo'lsa-da (ma'lumki, M.Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek", O.Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" nomli asarlarida ham bu obraz tasvirlangan bo'lib, ularda davr talablariga ko'ra biryoqlama yondashuv yetakchilik qilgan), Pirmqul Qodirov asarida Gavharshod begimga xos ezgulikka yo'g'rilgan insoniy tuyg'ularning badiiy talqini o'quvchini sehrlab, qahramon siymosining yangi-yangi qirralaridan hikoya qiladi. Ayni fikrimizni munaqqid U.Normatovning quyidagi so'zlari ham tasdiqlaydi: "Yangi romandagi Gavharshod begimning shijoati, donishmandligi, iztirobga to'la dilrozlari bilan tanishganda tarixda shunday tabarruk onaxonlarimiz o'tganidan ko'nglingiz ko'tariladi [5.31]. U tarix kechmishida ro'y beradigan bo'lajak fojeani avvaldan sezgandek, Abdullatifning fe'l-atvorida bobosi Xalil Sultonga xos xususiyatlar borligidan, bir kunmas bir kun uning ana shu fe'li o'z qilmishini qilishi mumkinligidan doimo xavotirda yuradi. Hatto Abdullatifning o'z padariga xiyonat qilishi mumkinligini qalban his qilgan Gavharshod begim: "Ixtiyoriddin qal'asida bir yil tinch yotsin. Vasvasaga beriladigan odati bor. Tabiblar davolasin. Mayli, ahli harami ham yonida bo'lsin. Qal'ada shohona xonalar bor. Maydan boshqa noz-u ne'matlar muhayyo qilingay. Biror yilda Abdullatif shifo topib, ehtimol fe'li ham o'zgarar. Ungacha alg'ov-dalg'ovlar ham bosilgay. Mirzo Ulug'bekning tinchini o'ylab shu taklifni qilmoqdamen. Borib ayting, janob elchi, men o'g'limga faqat yaxshilik istaymen!" [7.60] – deya xavfning oldini olishga harakat qiladi. Bu xatti-harakatlar Gavharshod begimning uzoqni ko'ra oladigan zukko ayol sifatida xarakter qirralarini namoyon qiladi.

Asar so'nggida kishi qalbini larzaga soladigan fojea ro'y beradi: Gavharshod begim – "ona lochin" umri poyonida xo'rlanib, evarasi tomonidan vahshiylarcha o'ldiriladi. Bu fojeali o'lim o'sha davridayoq ko'pgina olim va tarixchilarning qalbini larzaga solgan edi. Chunki temuriylar sulolasiga mansub shahzodalarning saltanat uchun o'zaro kurashlari avj olganiga qaramay, ular azaldan o'z onalari, ayniqsa, Gavharshod begimga o'xshab saltanat ishlarida ham benazir maslahatchi bo'la olgan oqilalarni g'oyat qadrlashgan. Romanning o'zida ham bunga ishoralar mavjud: "Amir Temurning vafotlaridan keyin uning buyuk saltanati qanday parchalanib ketganidan xabarlaringiz bor. Shohruh Mirzo o'g'limiz Ulug'bek bilan birga yagona markaziy davlatni qanday qayta tiklaganlariga men guvoh bo'lganman. Ular doimo ilm-u ma'rifat ahliga, halol odamlarga tayandilar. Barcha temuriylarga bag'rikenglik bilan munosabatda bo'ldilar" [7.22]. Qahramonning ushbu monologi orqali muallif uning asl insoniy xususiyatlarini ochib beradi.

Natijalar. Adabiyotshunos Mixli Safarov bu asar haqida yozarkan: “Roman faqat Gavharshod begim fojeasi to‘g‘risida emas. Chunki Gavharshod begim qanoti ostida Abdulatifday, Abusaidday vahshiy kimsalargina emas, balki Mirzo Ulug‘bekday, Alisher Navoiyday, Husayn Boyqaroday ilm-fanni, adabiyot va san‘atni, bunyodkorlikni yuksak cho‘qqilarga ko‘targan buyuk zotlar ham kamol topgan. Romandagi Qaqnus qushi ularning timsolidir” [8.51]. Romanda ayni shu masala adib diqqat-markazida turuvchi masalalardan biridir. Gavharshod begimning nazarida uning bir qanoti Abdulla Mirzo bo‘lsa, ikkinchisi Abulqosim Bobur edi. Ularning har ikkalasi ham mamlakat obodligi va ilm-fanning rivojiga e‘tibor berishda onaga qanot bo‘lishdi: “Necha yillar men bu zolimlar ulusidin qanotim boricha uchib qochdim. Ammo bir qanotim Samarqandda kuydi, yana bir qanotim Hirotida kuydi, endi, mana, qanotsiz qushdek arosatda qoldim. Ammo hamon hayotim boricha yugurib, haq taolo dargohiga ruhimni pok yetkazib borish harakatidamen” [7.168]. Qahramonning ayni shu nutqi tarixiy haqiqatlarning nihoyatda mahorat bilan badiiy asarga ko‘chirilganining isbotidir.

“Ona lochin vidosi”da lochin shunqorlari onasining o‘limiga sababchi bo‘lgani asosli ko‘rsatib berilgan. Asardagi “lochin” va “shunqorlar” timsoli orqali P.Qodirov badiiy tajribada u qadar yangilik bo‘lmagan otalar va bolalar munosabatiga yangicha nuqtayi nazardan e‘tibor qaratadi. Biroq ayni mana shu masalaning badiiy talqinida yozuvchi boshqa asarlarda uchramaydigan o‘ziga xos yechimni topganki, bu ona siymosining yangicha poetik mazmun kashf etishi bilan belgilanadi.

Xulosa. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, Gavharshod begimning obrazini yaratishda yozuvchi tarixiylik va badiiylikni uyg‘unlashtirishga muvaffaq bo‘lgan. Shu tariqa, “Ona lochin vidosi” romani nafaqat temuriylar tarixining qorong‘i sahifalarini yoritishda, balki tarixiy ayol obrazining badiiy talqinida ham o‘ziga xos ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari Pirimqul Qodirovning tarixiy roman janrida insoniy va tarixiy haqiqatni uyg‘unlashtirishdagi badiiy mahoratini tasdiqlaydi va bu asarni o‘rganishni yanada chuqurlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. E‘timodiy, Guya. Malika Gavharshod. Kobul: “Ariana” jurnali, 5-yil, 4-son, Tarix jamiyati, 1326.-26-b.
2. Jalil Ahmad Murshid, Muso La‘li. Hirot temuriylari. G‘ur universiteti ilmiy-tadqiqot jurnali, 1404.-93-b.
3. Ma‘rifiyun, Bani Sa‘id. Temuriy Gavharshodning siyosat, madaniyat va islomiy sivilizatsiya sohasidagi faoliyatini o‘rganish. “Tarix-e No” jurnali, 21-son, 1396.- 113-b.
4. Мирвалиев С. Ўзбек романи. Тошкент: Фан, 1969.- Б.116.
5. Normatov, U. G‘o‘zal inson madhi. O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati, 1998, 19 iyun.
6. Normatov, U. Yangi o‘zbek adabiyoti. T.: “Universitet”, 2007.- 144-b.
7. Қодиров П. Она лочин видоси. – Тошкент: Шарқ, 2001. Б.4, 22-23, 60, 168.
8. Сафаров М. Сафаров М. Улуғ Она қиссаси // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2004. – 19 ноябрь.
9. G‘ubor, Mir G‘ulom Muhammad. Afg‘oniston tarix yo‘lida. Kobul: Mayvand nashriyoti, 1394.- 339-b.